JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 VOLUME-4, ISSUE-10 CROSSREF Prefix: 10.66301

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUQUQ TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

Egamshukurov Azimjon Faxriddinovich

Termiz davlat universiteti

Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo`nalishi 1-bosqich talabasi

azimjonazimovvvv@gmail.com

Annotatsiya: Ma’muriy huquq davlat boshqaruvi sohasida huquqiy tartibga solishning muhim vositasi bo‘lib, fuqarolar, tashkilotlar hamda davlat organlari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy asosda yo‘lga qo‘yadi. Maqolada ma’muriy huquqning boshqa huquq tarmoqlari — konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoyat va mehnat huquqlari bilan o‘zaro aloqadorligi hamda ularning o‘zaro ta’siri yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar, xususan, “Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi” asosida davlat boshqaruv tizimining optimallashtirilishi, fuqarolarning davlat idoralari bilan o‘zaro munosabatlarini soddalashtirish va ochiqlik tamoyilini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ma’muriy huquq, O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimi, Davlat boshqaruvi, ma'muriy boshqaruv munosabatlar, Huquqiy tartibga solishda, Ma’muriy islohotlar, Inson huquqlarini ta’minlash, Huquqiy davlat, Shaffoflik va qonuniylik tamoyillari, Ma’muriy tartib-taomillar,

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiyalash jarayonlari ma’muriy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ma’muriy islohotlar asosida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarini oqilona qisqartirish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi vazifalarini aniq belgilab qo‘yish, davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirishda muayyan natijalarga erishildi. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2003-yil 20-iyundagi farmoyishi asosida Ma’muriy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni boshqarish tuzilmasini takomillashtirishga

ISSN (E): 2181-4570 VOLUME-4, ISSUE-10 CROSSREF Prefix: 10.66301

oid takliflarni tayyorlash bo‘yicha Respublika komissiyasining tuzilishi, shuningdek davlatimiz rahbarining 2003-yil 9-dekabrdagi «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomil lashtirish to‘g‘risida», 2003-yil 22-dekabrdagi «Xo‘jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonlari, «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to‘g‘risida»gi (2005-yil 10-mart) qarorining qabul qilinishi ma’muriy qonunchilik sohasida islohotlarning tizimli bosqichlarini boshlab berdi. Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma’muriy organlarning vazifalarini o‘zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo‘jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e’tibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko‘zda tutilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga hamda sud-huquq tizimida islohotlarning jadallashishiga xizmat qildi.

Xususan, konsepsiyada amaldagi qonun hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish zarurligi hamda «...ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta’minlash va fuqarolarning huquqlariniishonchli himoyalash bo‘yicha choralarni ham mazkur kodeksda ko‘zda tutish lozim» degan fikrlar ilgari surildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 17-yanvardagi «2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir» nomli ma’ruzasida «tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. Bu borada xususiy

ISSN (E): 2181-4570 VOLUME-4, ISSUE-10 CROSSREF Prefix: 10.66301

mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo‘jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lishi lozim» deb ta’kidlab o‘tildi.

Asosiy qism:

Ma’muriy huquq davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni, ya’ni davlat organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyatida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Davlat boshqaruvi o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hayotning eng muhim tomonlarini qamrab oladi. Bu jarayonda xo‘jalik-tashkilotchilik, ijtimoiy-madaniy ishlar amalga oshiriladi, ma’muriy-siyosiy masalalar hal qilinadi. Davlat boshqaruvini tashkil etish va boshqaruvni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan turli-tuman ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi ma’muriy huquq tarmog‘ini tashkil etadi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish – munosabatlarning barcha ishtirokchilari uchun majburiy bo‘lgan xulq-atvor qoidalarini ma’muriy huquq normalarida mustahkamlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunday qoidalarni o‘rnatish orqali davlat boshqaruvi va u bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarda vujudga keladigan funksiyalarni amalga oshirishning muayyan huquqiy tartibi yaratildi. 16 Aniq ijtimoiy munosabat ma’muriy munosabat bo‘lib, birinchidan, unda tegishli davlat organi albatta qatnashadi ikkinchidan, davlat boshqaruvi organi unga berilgan vakolatlardan foydalanganida ma’muriy huquqning tartibga solish ta’siriga uchraydi.

Davlat boshqaruvi organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning deyarli barchasi ma’muriy huquq normalari yordamida amalga oshiriladi.

Ma’muriy huquq – huquq tizimining yirik, murakkab va rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu uning tartibga solinuvchi predmetining o‘ziga xos xususiyatlaridan, munosabatlarning keng qamrovliligidan kelib chiqadi. Ijro etuvchi hokimiyat, boshqaruv

ISSN (E): 2181-4570 VOLUME-4, ISSUE-10 CROSSREF Prefix: 10.66301

faoliyati va boshqaruvning o‘zi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olganligi sababli ma’muriy huquq huquq tizimida asosiy o‘rinni egallaydi hamda boshqa huquq tarmoqlariga ta’sir ko‘rsatadi yoki aksincha, ularning ta’siriga uchraydi. Ma’muriy huquq normalari davlat huquqi normalaridan kelib chiqqan holda, avvalo, davlat boshqaruviga xos bo‘lgan xususiyatlarni va uning boshqa davlat faoliyati turlari bilan (qonunchilik, sud, prokuror nazorati) o‘zaro munosabatini, shuningdek, davlat boshqaruvi prinsiplarini mustahkamlaydi. Ma’muriy huquq davlat huquqi normalarini yanada aniqlashtirib va to‘ldirib, fuqarolarning ko‘pgina huquq va majburiyatlarini, ularning boshqaruv organlari orqali amalga oshirish mexanizmini hamda ushbu huquqlarni har qanday buzilishlardan himoya qilishni belgilaydi.

Ma’muriy huquq davlat organlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi, uning vazifa va maqsadlari, vakolatlari hamda huquqiy maqomining boshqa tomonlarini, tuzilishi va faoliyat jarayonini belgilab beradi. U boshqariluvchi obyektlarning aloqalarini tartibga soladi. Ushbu normalar rejalashtirish tartibini, moddiy resurslarni taqsimlash va ish haqini belgilashni mustahkamlaydi.

Ma’muriy huquq – jamoat tashkilotlari va jamoat organlarining huquqiy maqomini o‘rnatishda katta ahamiyatga ega. U nafaqat boshqaruvni, balki boshqariluvchi faoliyatni ham tartibga soladi. Shu bilan birga, ma’lum bir ijtimoiy munosabatlar guruhini tartibga solib, mazkur munosabatlar uning predmetini tashkil etadi.

Aksariyat olimlar davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladiganquyidagi ijtimoiy munosabatlar ma’muriy huquq predmetiga kiritadilar:

1) tashkiliy jihatdan biri ikkinchisiga bo‘ysunadigan davlat bosh- qaruvi organlari o‘rtasidagi munosabatlar (masalan, vazirlik va davlat qo‘mitalarining ularga bo‘ysungan boshqarma va bo‘limlari o‘rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar);
2) bir-biriga bo‘ysunmaydigan davlat boshqaruvi organlari o‘rtasi- dagi munosabatlar (masalan, ikki vazirlik, vazirlik va davlat qo‘mitasi o‘rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar);
3) davlat boshqaruvi organlari va ularga bo‘ysunadigan korxona, muassasa va tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar;
4) davlat boshqaruvi organlari va jamoat birlashmalari o‘rtasidagi munosabatlar;

ISSN (E): 2181-4570 VOLUME-4, ISSUE-10 CROSSREF Prefix: 10.66301

5) davlat boshqaruvi organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar.

Qayd etilgan barcha ijtimoiy munosabatlarda davlat organi ishtirok etadi. Bu qonuniydir, chunki boshqaruv faoliyati davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllaridan biridir.

Davlat boshqaruvi sohasida davlat nomidan harakat qiladigan va uning xohish-irodasini ifodalaydigan organning ishtirokisiz, ma’muriy huquq predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar bo‘lishi mumkin emas. Shu sababli, ikki fuqaro o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlar – ma’muriy-huquqiy munosabatlar hisoblanmaydi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida shartnomalar asosida vujudga keladigan munosabatlar ham ma’muriy huquq predmetiga kirmaydi, chunki ular fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan shartnoma munosabatlari hisoblanadi. Huquq tizimida huquqni tarmoqlarga ajratish asoslaridan biri – huquqiy tartibga solish uslubidir. Huquqiy tartibga solish uslubi jamiyatdagi mavjud munosabatlarga huquq ta’sirida qo‘llaniladigan usul, vosita va yo‘llar yig‘indisidan iborat

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy huquq tizimi umumiy va maxsus qismlardan iborat. Umumiy qism me’yorlari davlat boshqaruvining asosiy tomoyillarini, Ma’muriy huquq sub’yektlarining huquqiy holatini, davlat xizmati asoslarini boshqaruvining huquqiy shakllari va usullarini davlat boshqaruv tizimidagi qonuniylik va intizomni ta’minlash usullari va tartibini mustahkamlaydi. Maxsus qism esa davlat boshqaruvining turli tarmoqlari va sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi me’yorlarga bag‘ishlangan. Unda iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hamda ma’muriy-siyosiy faoliyat sohasidagi boshqaruvni yo‘lga solish me’yorlari yoritib berilgan. Tarmoqlararo davlat boshqaruvini tartibga soluvchi me’yorlar ham shular jumlasiga kiradi.

Turli davlat organlari tomonidan chiqariladigan me’yoriy-huquqiy aktlar Ma’muriy huquqni bayon qilish shakli, uning manbalari bo‘lib xizmat qiladi. UzR Konstitutsiyasidagi mavjud me’yorlarning aksariyat qismi bevosita ma’muriy-huquqiy yo‘nalishga ega bo‘lgan eng muhim me’yorlar jumlasidandir. Bular, masalan, ijro etuvchi hokimiyat organlarining shakllanish va faoliyat asoslarini belgilab beruvchi hamda fuqarolarning davlat boshqaruv tizimidagi huquq va erkinliklarini mustahkamlovchi konstituiiyaviy me’yorlar sanaladi. Ma’muriy huquq asosiy me’yorlari O‘zbekiston

ISSN (E): 2181-4570 VOLUME-4, ISSUE-10 CROSSREF Prefix: 10.66301

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim, mudofaa, joylardagi davlat hokimiyati, sanitariya nazorati va boshqa to‘g‘risidagi qonunlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat boshkaruv organlarini tuzish, ularni qayta tashkil qilish va tugatish to‘g‘risidagi, shuningdek, boshqaruv tizimlarini iqtisodiy, ijtimoiymadaniy, ma’muriy-siyosiy qurilish va hokazo sohalaridagi, turli tarmoqlarni takomillashtirish to‘g‘risidagi ko‘plab qarorlari Ma’muriy huquq manbalari bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvini tartibga solish ishi O‘zR hukumatining, tarmoq va tarmoqlararo davlat boshqaruv organlarining , shuningdek, joylardagi vakolatli va ijro etuvchi organlarning me’yoriyhuquqiy aktlari bilan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomini belgilab beruvchi aktlarni qabul qiladi, Ma’muriy huquq manbalari hisoblanadigan turli xil krnunkridalarni tasdiklaydi. Ma’muriy huquq manbalari katoriga, jumladan, qarorlar, buyruqlar, tarmoq va tarmoqlararo boshqaruv organlari (vazirliklar, mahkamalar, davlat qo‘mitalari, respublika agentliklari)ning turli xil yo‘riqnomaviy materiallari, shuningdek, joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarorlari kiradi.

Mustaqillik yillarida Ma’muriy huquq me’yorlari ancha yangilandi. Chunki, davlatning iqtisodiy funksiyalari, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi va ular faoliyatidagi asoslilik, omilkorlik singari jihatlar ham tubdan o‘zgardi. Markazlashmagan tizimga o‘tish va umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lmagan qator vakolatlarning markaziy organlardan quyi bo‘g‘inlarga o‘tkazilishi jarayoni ro‘y bermoqda.

Ma’muriy huquqning ijro etuvchi hokimiyat tuzilishini tokomillashtirishda, davlat xizmatining huquqiy asoslarini vujudga keltirishda, bozor iqtisodi-yotini tartibga solishda, fuqarolar va tadbirkorlik tizimlari qonuniy huquklari va manfaatlarining qat’iy himoya ostiga olinishini ta’minlashda ahamiyati katta.Boshqaruv jarayonida turli xildagi huquq normalari ta'siri ostida bo'ladigan va ma'muriy huquq predmeti doirasiga kirmay- digan munosabatlar tartibga solinadi. Shu tariqa, O'zbekiston Res- publikasi huquq tizimi turli tarmoqlarining o‘zaro munosabati vujudga keladi.

ISSN (E): 2181-4570 VOLUME-4, ISSUE-10 CROSSREF Prefix: 10.66301

Ma'muriy huquq fani konstitutsiyaviy huquq va moliya huquqi fanlariga juda yaqin turadi. Lekin shu bilan birga bu huquq tarmoqlari o'zining tartibga solish predmeti (ijtimoiy munosabatlar doirasi) va o'ziga xos xususiyatlariga qarab bir-biridan farqlanadi. Konstitutsiyaviy huquq fani huquq tizimida alohida o'rinni egallaydi. Unda davlatning ijtimoiy tuzilishi va davlat siyosatining asoslari, davlat bilan shaxs o'rtasidagi o‘zaro munosabatlar, milliy- davlat va ma'muriy-hududiy tuzilish, davlat organlari tizimining asoslari, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, ekrinliklari va burchlari ifodalanadi. Konstiutsiyaviy huquq fanining predmeti ma'muriy huquq fanining predmetidan kengdir. Jumladan, konsti- tutsiyaviy huquq barcha davlat organlari uchun umumiy bo'lgan tashkil etish va faoliyat ko'rsatish prinsiplarini belgilab beradi. Ma'muriy huquq normalari esa, yuqoridagilarga asoslanib, davlat boshqaruvida ularni qo'llashni tartibga soladi.

Xulosa: Ma’muriy huquq O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimining tarkibiy va mazmunan markaziy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, davlat boshqaruvini huquqiy tartibga solishga qaratilgan eng muhim normativ mexanizmlarni o‘zida mujassam etadi. Ushbu soha ijroiya hokimiyati organlarining tuzilishi, vakolatlari, faoliyat usullari, ularning o‘zaro hamkorlik tamoyillarini belgilab, davlat boshqaruvining samaradorligi, aniqligi va barqarorligini ta’minlashda asosiy vazifa va funksiyalarni bajarmoqda.

Shu bilan birga, ma’muriy huquq fuqarolar, mansabdor shaxslar hamda davlat organlari o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy me’yorlar asosida tartibga solib, har bir subyektning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi kafolatlarni belgilaydi. Xususan, ma’muriy javobgarlik institutining mavjudligi huquqbuzarliklarning profilaktikasida, jamoat tartibini mustahkamlashda, intizomiy va tashkiliy barqarorlikni ta’minlashda yuqori samaradorlikka ega.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ma’muriy-huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvini optimallashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat xizmatlarini soddalashtirish hamda “bir darcha” tizimining takomillashuvi mazkur sohaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shuningdek, ma’muriy sudlar faoliyatining joriy etilishi fuqarolarning davlat organlari ustidan shikoyat qilish huquqini kafolatlaydi va davlat hokimiyati organlarining hisobdorligini kuchaytiradi.

ISSN (E): 2181-4570 VOLUME-4, ISSUE-10 CROSSREF Prefix: 10.66301

Umuman olganda, ma’muriy huquqning huquqiy davlatni barpo etishdagi o‘rni beqiyosdir, chunki u qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo‘linishi, ijtimoiy adolat, davlat organlari faoliyatining shaffofligi va nazorat mexanizmlarining takomillashuvini ta’minlaydi. Mazkur sohaning ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganilishi hamda normativ-huquqiy bazasining takomillashuvi O‘zbekiston Respublikasining demokratik rivojlanishi, jamiyat boshqaruv tizimining modernizatsiyasi va fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, ma’muriy huquqning rivojlanish istiqbollari doimiy yangilanish, xalqaro standartlarga moslashish va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kelgusida ham bu soha huquq tizimining yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi shubhasizdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1.O'zvekiston Respublikasi Konstitutsiya

2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat universititeti "Ma'muriy huquq" darslik .J.M.Nematov 2023

3. Ma'muriy huquq darslik. Erkin Xojiyev ,To'lqin Xojiyev 2008.

4 .https://share.google/hqnZy4HHbBKuTVLj2

5. https://share.google/zn0syuA2ppRcpynP9

6. Ma'muriy huquq darslik 2021.Sh.T.Ikramov va U.AXamedov